

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYNALANISHNING O'ZIGA XOSLIGI

To'xtayeva Surayyo G'aniyevna

Jizzax viloyati Sharof rashidov tumani

18- DMTTda tarbiyachi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotlarida interfaol usullaridan foydalanishning o'ziga xosligi haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *Interfaol ta'lif, metod, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar,*

Abstract: *This article talks about the uniqueness of using interactive methods in preschool educational organizations.*

Key words: *Interactive education, method, brainstorming, work in small groups, discussion, problem situation, reference text, project, role-playing games.*

Аннотация: *В данной статье говорится об уникальности использования интерактивных методов в дошкольных образовательных организациях.*

Ключевые слова: *Интерактивное обучение, метод, мозговой штурм, работа в малых группах, обсуждение, проблемная ситуация, справочный текст, проект, ролевые игры*

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lif-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lif metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lif muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lif metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lif-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lif metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun mashg'ulot jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lif beruvchi tomonidan ta'lif oluvchilarining qiziqishini orttirib, ularning ta'lif jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn,

loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metodlar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Interfaol metodlar bolalar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u haqiqatdan ham ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, bolalarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, bolalarda bilimga ishtiyoy va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Ta'limning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir mashg'ulotning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy mashg'ulot shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv tashkilotining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroqbo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interfaol metodlarga asoslangan ta'lim jarayonida pedagog faoliyati va bola faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning

aniqtexnologiyasi ko`rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan maktabgacha yoshda pedagogning mahorati, uni innovatsion pedagogic texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi yangi yo`l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo`lajak maktabgacha ta'lim yo`nalishi tarbiyachilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, interfaol metodlarni amaliyatga tatbiq etishga tayyorlash bugungi ta'limning oldiga qo`yilgan talablardan biridir. Chunki interfaol metodlar, birinchidan, bolalarni bilim, ko`nikma va malakalarini oson va qiziqib o`rganishlari uchun imkoniyat yaratса, ikkinchidan, o`qituvchining ham professional o`sishiga, ham ma`naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, nterfaol metodlar asosida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot komminikatsiya vositalaridan keng foydalanilmoqda. Bolalarni maktabga tayyorlashda ularning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida innovatsion pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Mashg`ulotlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida maktabgacha ta'lim davri muhim o'rinn tutadi. Shu bois maktabgacha ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehnini o`stirishga qaratilgan har bir mashg`ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko`rsatadi. Shuning uchun ham bolalarni maktabga tayyorlashda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gaynazarova G.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarida pedagogik maxoratni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari. Maktabgacha ta'lim. Jurnal. 2017. №4.
2. Azizzodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. T.: TDPU 2003. 175 b.
3. Abdullayeva X.A. Mashg`ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish. – Farg'ona: FarDU, 2008.
4. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob:- Toshkent, "Ilm-Ziyo" nashriyoti. 2012.
5. . www.tdpu.uz

6. www.pedagog. Uz